

BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Allaberdievna Kumri Xamrayevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish, unga uzluksiz ta'limning asosiy bosqichi sifatida qarash mamlakatimizda ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, 2017-yilning 30-avgustida Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu sohada amalga oshiriladigan ishlar konsepsiyasini belgilab berdi. O'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol inson sifatida shakllanishida jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyaning keng ko'lamli pedagogik jarayoni ko'rsatib berildi. Bu esa, ushbu sohadagi pedagoglarimiz oldiga juda katta mas'uliyat va vazifalar yuklamoqda.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, ta'limga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli ta'limga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi ta'limga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs qilib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida manan mukammal va intellektual shaxsni tarbiyalash uchun xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarini inobatga olish lozim.

Bola yangi bilimlarni o'yinlar va didaktik vositalar asosida o'zlashtirganida samaradorlik yuqori bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotni oddiy o'qib berishdan ko'ra innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo'llash talab etiladi.

Zamonaviy yondoshuvlar - bu pedagogik faoliyat natijasiga samarali erishishni ta'minlaydigan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'limiy munosabatlarning yangi usullari asosida faoliyat jarayonini tashkil etishdir. Faoliyat jarayonini bunday tashkil etish bolaning shaxsiy rivojlanishidagi ijobiy natijaga erishishga qaratilgan ta'limiy usullar, metodlar, vositalarni o'z ichiga oladi. [5]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish jarayonida zamonaviy yondoshgan holda badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o'rgatish ta'lim sifatini oshiradi va yuqori samaradorligiga erishiladi. [5]

Tarbiyachi an'anaviy ravishda badiiy asarlarni o'qib berishdan ko'ra innovatsion shaklda badiiy asar bilan tanishtirish bolalarda tez qabul qilish, ko'z bilan ko'rib idrok etish, tasavvur qilish kabi bir qator afzalliklarga erishiladi.

Tarbiyachi badiiy asarni o'qib berish jarayni nihoyasiga etgach, shu asar asosidagi magnitli kartinkalardan foydalanib "O'rnini topib joylashtir" o'yinini qo'llasa bu bolalarni faollikka va muammoli vaziyatni echishga undaydi. Masalan: "Sholg'om" ertagidagi asar qahramonlari tasvirlangan magnitli kartinkalaridan foydalanib, asar kompozitsiyasini ya'ni asarning mazmunan, harakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarini joylashtiradi. Bolalar rasmlarni izlab topish jarayonida ularning nutqi, kuzatuvchanligi, tafakkur, tasavvur va mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Ushbu faoliyatda bolalar zerikib qolmaydi balki, bu usul vositasida barcha bolalar ish jarayoniga jalb etiladi. Bunday zamonaviy yondoshuvning afzallik tomoni shundaki tarbiyachi asosiy ijrochi rolikdan kuzatuvchilikka o'tadi va bolalarga erkinlik beradi. Faol ishtirok etgan bolalar tarbiyachi tomonidan rag'batlantiriladi va nutqiy faollikka yo'l ochadi. [5]

Shundan kelib chiqib, bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga zamonaviy yondoshilgan holda an'anaviy usul va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo'llaniladi:

1. Vizual modellashtirish texnologiyasi.
2. AKT texnologiyalari.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda vizual modellashtirish texnologiyasini qo'llash samaralidir.

Ushbu usuldan bolalarning aqliy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli ishlatiladi. Yuqorida keltirganimiz "O'rnini topib joylashtir" o'yini vizual modellashtirishga misol bo'la oladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda AKT texnologiyalarini qo'llash samaralidir. Chunki kompyuterda, katta ekranda badiiy asarning namoyish etilishi bolaga xotirada saqlab qolish qobiliyatini o'stiradi. Bolalar ma'lumotlarni oddiy eshitganidan ko'ra kompyuter texnologiyalari vositasida tezroq o'rganadilar. Tarbiyachining og'zaki aytib bergan ertagidan ko'ra ekranda ko'rgan asar qahramonlarini uzoq muddat eslab qoladi. Maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanish zarurati hoizirgi davr talablaridan biridir. [5]

Mana shularni inobatga olgan olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir zamonaviy yondashuvlar asosida, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarni kiritish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

Agar tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda zamon talablari asosida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalansa 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab

qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi.

Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir zamonaviy yondashuvlar quyidagi afzalliklarga ega:

a) bolalar berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) Bolalarda ta'lim olishning ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) bolalar olingan bilimlarini xotirasida o'zoq muddat saqlay oladi va kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir zamonaviy yondashuvlar quyidagi asosiy texnikaviy-pedagogik talablarga amal qilishni talab etadi:

1. Bolalar xonasini texnika vositalari bilan jixozlashda o'quv jarayonida ulardan kompleks tarzda foydalanishini hisobga olishi zarur.

2. Katta ekranda ko'rayotgan asarni bola ko'rish va eshitishi uchun yaxshi sharoit ta'minlash lozim.

3. O'qitishning texnika vositalari ishlatilganda xonadagi shovqin manbalarini yo'kotish kerak.

4. Barcha texnikaviy qurilmalar puxta va buzilmay ishlashi darkor.

5. Texnika vositalarining tuzilishi va ishlatilishi oddiy bo'lishi kerak.

6. O'qitishning barcha universal va maxsus texnika vositalaridan birgalikda oqilona foydalanish lozim.

7. Ishlatilishi iktisodiy jixatdan maqsadga muvofik bo'lishi zarur.

Davlat talablariga mos ravishda bola psixologiyasining yosh jihatlarini va o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda yaratilgan elektron manbalar, ta'limiy ertaklar, bosqichli o'yinlar, o'quv-uslubiy animatsion videoroliklar juda samarali vositalar hisoblanadi. Faoliyatlar an'anaviy usullarda tashkil qilinishidan farqli ravishda raqamli texnologiyalardan foydalanib innovatsion usullarda, elektron manbalar asosida tashkil etilsa, bolaga berilayotgan bilim va ko'nikmalarga nisbatan qiziqishning uyg'onishiga, diqqatini o'ziga jalb qilib va xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, axborot texnologiyalari bir qator yangi imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlarini va keyinchalik maktabda muvofaqqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

ADABIYORLAR:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi, 2018 y.

2. Grigoreva A.A. Kachestvo doshkolnogo obrazovaniya: integratsiya nauki i praktiki, 2018.
3. Gerbova V.V. Razvitie rechi v detskom sadu, "Mozaika-sintez", 2010.
4. Makarova N.Sh. «Rechevoe razvitie detey 2-8 let. Metodiki. Uchebno-igrovye materialy», 2018
5. Dilorom Raupovna Jo'rayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi innovatsion texnologiyalarning tasnifi. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 883-889,
- 6.A.K.Xamrayevna . Maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qollash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi // Innovation in the modern education system, 2023